HSR London International Conference on Multidisciplinary Academic Research
(HSR-ICMAR) 2026
https://houghtonstreetreview.com/index.php/conference

# DAVLAT XIZMATIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI OLDINI OLISH: NAZARIYA VA AMALIYOT UYG‘UNLIGI

**Abdulxafizova Shaxrizoda**
Toshkent davlat yuridik universiteti
Huquqni sohalararo o’rganish fakulteti
4-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21331527

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda davlat xizmatchilarining halolligi va xolisligi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, davlat xizmatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Manfaatlar to‘qnashuvi — bu davlat xizmatchisining shaxsiy manfaatlari bilan uning xizmat vazifalari o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyat bo‘lib, u qaror qabul qilish jarayonining xolisligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tushuncha xalqaro tashkilotlar tomonidan ham keng yoritilgan bo‘lib, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti uni davlat boshqaruvida eng muhim xavf omillaridan biri sifatida baholaydi.

Ilmiy adabiyotlarda manfaatlar to‘qnashuvi masalasi chuqur o‘rganilgan. Xususan, amerikalik olim, iqtisodchi va siyosatshunos Robert Klitgaard o‘zining korrupsiya nazariyasida manfaatlar to‘qnashuvini vakolatlarning ortiqcha markazlashuvi va nazoratning sustligi bilan izohlaydi. Shuningdek, Susan Rose-Ackerman manfaatlar to‘qnashuvini huquqiy tizimdagi bo‘shliqlar va tartibga solish mexanizmlarining yetarli emasligi bilan bog‘laydi. Unga ko‘ra, aniq va qat’iy normativ baza mavjud bo‘lmagan sharoitda davlat xizmatchilari o‘z manfaatlarini xizmat manfaatlaridan ustun qo‘yishi ehtimoli ortadi.

Manfaatlar to‘qnashuvi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham jiddiy muammo hisoblanadi. Transparency International tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra, davlat sektoridagi korrupsiya holatlarining 35–40 foizi bevosita manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq. Bu esa mazkur hodisaning korrupsiya tizimidagi markaziy o‘rnini ko‘rsatadi.

Xorijiy tajriba manfaatlar to‘qnashuvini samarali boshqarishning muhim mexanizmlarini taklif etadi. Masalan, AQShda davlat xizmatchilarining moliyaviy deklaratsiya tizimi orqali ularning daromadlari va aktivlari muntazam nazorat qilinadi. Bu tizim manfaatlar to‘qnashuvini erta bosqichda aniqlash imkonini beradi. United States Office of Government Ethics ushbu jarayonni muvofiqlashtiruvchi asosiy organ hisoblanadi.

Yevropa davlatlarida esa etik me’yorlarga katta e’tibor qaratiladi. Mark Philp ta’kidlashicha, davlat boshqaruvida etik qadriyatlarning mustahkamligi korrupsiyani kamaytirishning asosiy omillaridan biridir. Shu bois Fransiya va Germaniyada davlat xizmatchilari uchun qat’iy etik kodekslar joriy etilgan.

Raqamlashtirish ham manfaatlar to‘qnashuvini kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Estoniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, davlat xizmatlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish inson omilini minimallashtiradi va korrupsiya xavfini kamaytiradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, elektron boshqaruv tizimi joriy etilgan sohalarda korrupsiya darajasi o‘rtacha 25–30 foizga kamaygan.

O‘zbekiston Respublikasida ham manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etilib, ushbu yo‘nalishda yagona davlat siyosatini yuritish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, davlat xizmatida etik me’yorlarni joriy etish, ochiqlikni ta’minlash va raqamlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, 2022-yilda O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi bu sohani huquqiy tartibga solish bilan birga rivojlantirish mexanizmlarini, jumladan, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish tartibotini belgilab berdi. Maxsus davlat xizmati organlarining faoliyatini tartibga solish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. So'nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida sohani tartibga solish bilan bir qatorda, davlat xizmatini shaffof, qonuniy va adolat mezonlari asosida ishlaydigan, korrupsiya va uning turli ko'rinishlaridan xoli tizimga aylantirish bo'yicha ishlar kuchaytirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarorida 2021-yil 1-dekabrdan boshlab har yil yakuni bo'yicha barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholovchi reytingni e’lon qilish amaliyotini joriy etish bilan bog'liq vazifalarning belgilanganligi sohada manfaatlar to'qnashuvini kamaytirish, bu borada sog'lom raqobat, shaxsiy mas'uliyat va javobgarlikning oshishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat xizmatida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Daniel Kaufmann ta’kidlashicha, samarali davlat boshqaruvi ochiqlik, hisobdorlik va qonun ustuvorligiga asoslanadi. Ushbu tamoyillarni amaliyotga joriy etish manfaatlar to‘qnashuvini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Maxmudov, F.B. Davlat xizmatida korrupsiya va manfaatlar to’qnashuvi. – Toshkent, 2023.
2. Niyozova, S.S., Hakimov, K.B. Korrupsiyaga qarshi kurashishda komplayens nazorat tizimi. – Toshkent, 2025.
3. Xusanov, O.T. Davlat xizmati: nazariya va amaliyot. – Toshkent, 2018.
4. Kazakov, A. Gosudarstvennaya slujba nazariyasi. – Moskva, 2015.
5. Mirzayev, B. Davlat boshqaruvi nazariyasi. – Toshkent, 2020.
6. Abdullayev, A. Korrupsiyaga qarshi kurash asoslari. – Toshkent, 2019.